ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 7

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME – 7

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

ZAMONAVIY MODADA MILLIY LIBOSLAR TRANSFORMATSIYASI VA FAST FASHION JARAYONLARINING TA'SIRI

Mustanova Nafisa Xabibullayevna
Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti Samarqand filiali "Aniq fanlar" kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: nafisamustanova77@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari va "fast fashion" (tezkor moda) industriyasining milliy liboslar dizayniga ko'rsatayotgan ta'siri,qolaversa shu bilan birga, fast fashion sanoatining jadal rivojlanishi moda olamida ekologik va madaniy muammolarni yuzaga keltirishi, milliy liboslarning zamonaviy modadagi o'rni va fast fashion jarayonlarining ta'siri keng yoritiladi. Maqolada an'anaviy o'zbek liboslarining zamonaviy moda kontekstida transformatsiyalashuvi, etnik elementlarning kundalik kiyimlar bilan sintezi va ushbu jarayonning ijtimoiy-madaniy ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Fast fashion, globallashuv, milliy liboslar, zamonaviy moda, ekologik, madaniy, transformatsiya, mato.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние процессов глобализации и индустрии «быстрой моды» на дизайн национальной одежды, а также тот факт, что стремительное развитие индустрии быстрой моды создает экологические и культурные проблемы в мире моды, роль национальной одежды в современной моде и влияние процессов быстрой моды. В статье анализируется трансформация традиционной узбекской одежды в контексте современной моды, синтез этнических элементов с повседневной одеждой и социокультурное значение этого процесса.

Ключевые слова: Быстрая мода, глобализация, национальная одежда, современная мода, экологическая, культурная, трансформация, ткань.

Abstract. This article discusses the impact of globalization processes and the "fast fashion" industry on the design of national clothing, as well as the fact that the rapid development of the fast fashion industry creates environmental and cultural problems in the fashion world, the role of national clothing in modern fashion and the impact of fast fashion processes. The article analyzes the transformation of traditional Uzbek clothing in the context of modern fashion, the synthesis of ethnic elements with everyday clothes, and the socio-cultural significance of this process.

Keywords: Fast fashion, globalization, national clothing, modern fashion, ecological, cultural, transformation, fabric.

KIRISH.

Bugungi globallashuv sharoitida moda jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, u nafaqat tashqi ko'rinish, balki madaniyat va milliy o'zlikning

ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.Zamonaviy modada milliy liboslar va an’anaviy naqshlardan foydalanish dizaynerlar uchun muhim ilhom manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, fast fashion tizimining jadal rivojlanishi ekologik va madaniy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada milliy liboslar transformatsiyasi, fast fashion ta’siri va barqaror moda masalalari keng yoritiladi.

Milliy liboslar har bir xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa hisoblanadi. Ular asrlar davomida xalqning turmush tarzi, iqlim sharoiti, diniy e’tiqodlari hamda ijtimoiy munosabatlari ta’sirida shakllanib kelgan. Zamonaviy globallashuv jarayonida esa milliy liboslar o‘zining an’anaviy ko‘rinishini saqlagan holda yangi shakl va mazmun kasb etmoqda. Ushbu jarayon milliy liboslar transformatsiyasi deb ataladi.1-2-rasm



1-rasm



2-rasm

Milliy liboslar transformatsiyasining mohiyati — an’anaviy kiyim elementlarini zamonaviy moda talablariga moslashtirishdan iborat. Bunda liboslarning asosiy ramziy ma’nosi, naqshlari, ranglar uyg‘unligi va bezaklari saqlanadi, biroq fason, material va qo‘llanish sohasi jihatidan yangilanadi. Masalan, an’anaviy atlas va adras matolari kundalik liboslar, zamonaviy ko‘ylaklar, kostyumlar va aksessuarlarda keng qo‘llanilmoqda.

Milliy liboslar transformatsiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri — funksionallikdir. Zamonaviy inson hayot tarzi tezkorlik va qulaylikni talab qilganligi sababli, milliy liboslar elementlari yengil, qulay va kundalik kiyishga

ISSN 3030-3907

mos shaklda ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, estetik jihatdan jozibadorlikni oshirish maqsadida zamonaviy dizayn usullari qo‘llanilmoqda.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — milliylik va zamonaviylik uyg‘unligidir. Dizaynerlar an’anaviy kashtachilik, naqsh va ranglardan foydalanib, ularni minimalistik va zamonaviy fasonlar bilan birlashtirmoqda. Bu esa milliy liboslarning nafaqat mahalliy, balki xalqaro moda bozorida ham raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qilmoqda.O‘zbek milliy liboslari — atlas, adras, do‘ppi va kashtachilik san'ati bilan mashhur. So‘nggi yillarda ushbu elementlar zamonaviy kiyim dizayniga moslashtirilmoqda. Milliy liboslar kundalik kiyim, sahna liboslari va yuqori moda kolleksiyalarida qayta talqin qilinmoqda. Bu jarayon milliy madaniyatni saqlagan holda uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.Shuningdek, milliy liboslar transformatsiyasida barqaror moda tamoyillari ham muhim o‘rin tutmoqda.

Fast fashion — bu zamonaviy moda industriyasida kiyim-kechaklarni tezkor ishlab chiqarish, arzon narxlarda sotish va qisqa muddatda yangilanib turuvchi kolleksiyalarni taqdim etishga asoslangan tizimdir. Ushbu tushuncha XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ommalashib, global moda bozorida muhim o‘rin egalladi. Fast fashion kompaniyalari modadagi so‘nggi tendensiyalarni tezda ommaviy ishlab chiqarishga joriy etib, iste’molchilarga qisqa vaqt ichida yetkazib berishni maqsad qiladilar.

Fast fashion’ning moda industriyasiga asosiy ta’siri ishlab chiqarish jarayonlarining jadallashuvida namoyon bo‘ladi. Dizayn, tikuv va savdo jarayonlari o‘ta qisqa muddatda amalga oshiriladi. Natijada kiyimlar sifati pasayib, ularning xizmat muddati qisqaradi. Bu holat iste’molchilarda kiyimni tez-tez almashtirish odatini shakllantiradi va haddan tashqari iste’mol madaniyatining rivojlanishiga olib keladi.Fast fashion moda industriyasiga ijobiy ta’sir sifatida modaning ommalashuvi va keng qatlamlar uchun qulay narxlarni ta’minlashini ko‘rsatish mumkin. Biroq ushbu tizimning salbiy oqibatlari ancha jiddiydir. Xususan, atrof-muhitga yetkaziladigan zarar fast fashion’ning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kiyim ishlab chiqarishda katta miqdorda suv, kimyoviy bo‘yoqlar va sun’iy materiallardan foydalanilishi ekologik muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy globallashuv jarayonida moda industriyasi milliy chegaralardan chiqib, yagona global makonga aylangan. Biroq ushbu jarayon milliy madaniyat va an’anaviy dizayn elementlarining yo‘qolishiga emas, balki ularning global moda bilan uyg‘unlashuviga olib kelmoqda. Milliy va global modaning o‘zaro aloqasi zamonaviy dizayn jarayonlarida muhim tahlil obyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

Shu bilan birga, global moda ta’siri ostida milliy dizayn soddalashuvi yoki standartlashuvi xavfi ham mavjud. Ayniqsa, fast fashion tizimi doirasida milliy elementlar yuzaki va ramziy ma’nosini yo‘qotgan holda qo‘llanishi mumkin. Bu holat milliy madaniy qadriyatlarning chuqur mazmunini yo‘qotishiga olib kelishi ehtimoli bor.

Milliy va global modaning uyg‘unligini ta’minlashda barqaror moda tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy matolar, qo‘l mehnati va mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash orqali milliy moda global bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlay oladi. Bunday yondashuv nafaqat estetik, balki ekologik va ijtimoiy jihatdan ham muhimdir

Zamonaviy moda industriyasida barqaror moda tushunchasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Barqaror moda — bu ekologik toza materiallardan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonida tabiiy resurslarni tejash hamda ijtimoiy mas’uliyatni ta’minlashga qaratilgan moda yo‘nalishidir.

Barqaror moda — bu kiyim-kechak va moda mahsulotlarini ishlab chiqarish, tarqatish hamda iste’mol qilish jarayonida ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy mas’uliyatni hisobga oladigan moda yo‘nalishidir. Ingliz tilida bu tushuncha “sustainable fashion” deb ataladi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va inson mehnatini qadrlashdan iborat.

An’anaviy fast fashion tizimida kiyimlar tez va arzon ishlab chiqarilib, qisqa muddat foydalaniladi. Natijada katta hajmdagi chiqindilar, suv sarfi va ekologik ifloslanish yuzaga keladi. Barqaror moda esa buning aksicha, sifatli, uzoq muddat xizmat qiluvchi va ekologik xavfsiz mahsulotlar yaratishga intiladi.

Barqaror moda — bu nafaqat kiyim yaratish usuli, balki tabiatga, jamiyatga va inson mehnatiga hurmat bilan qarash falsafasidir. Kelajakda moda sanoatining rivojlanishi ekologik tozalikka, qayta ishlashga va mas’uliyatli iste’molga asoslanishi muhim hisoblanadi.

Ushbu yondashuv fast fashion’ning salbiy oqibatlariga muqobil sifatida shakllanmoqda va milliy qadriyatlarni saqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.Milliy liboslar va an’anaviy kiyim madaniyati barqaror modaning asosiy tamoyillari bilan uyg‘unlikda rivojlanadi. An’anaviy kiyimlar, odatda, tabiiy matolardan tayyorlanadi, qo‘l mehnati asosida ishlab chiqariladi va uzoq muddat xizmat qilishga mo‘ljallanadi. Bu esa ularni ekologik jihatdan maqbul va iqtisodiy samarali mahsulotlarga aylantiradi. Shu jihatdan, milliy liboslar barqaror modaning amaliy namunasi sifatida qaralishi mumkin.Barqaror moda doirasida milliy qadriyatlarni saqlash, avvalo, an’anaviy hunarmandchilik turlarini qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Kashtachilik, to‘quvchilik va milliy naqsh san’ati kabi yo‘nalishlarning rivojlanishi nafaqat madaniy merosni asrab-

ISSN 3030-3907

avaylash, balki mahalliy aholining bandligini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Bu jarayon ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.Shuningdek, barqaror moda milliy dizaynning global moda bozorida o‘ziga xosligini saqlab qolish imkonini beradi. Milliy elementlarga asoslangan barqaror kiyimlar ommaviy va tezkor ishlab chiqariladigan mahsulotlardan farqli ravishda o‘ziga xos estetik va madaniy qiymatga ega bo‘ladi. Bu esa iste’molchilarda ongli tanlov madaniyatini shakllantiradi.

Moda dizaynda milliy liboslar transformatsiyasi — bu faqat tashqi ko‘rinishdagi o‘zgarish emas, balki milliy madaniyatni saqlagan holda uni zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashtirish jarayonidir. Ushbu jarayon moda dizaynida madaniy merosni asrab-avaylash va rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Fast fashion zamonaviy moda industriyasining ajralmas qismi bo‘lsa-da, uning ekologik, ijtimoiy va madaniy salbiy ta'sirlarini inkor etib bo‘lmaydi. Shu sababli bugungi kunda barqaror moda, milliy dizayn va sifatga asoslangan ishlab chiqarish tizimlariga o‘tish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Milliy va global moda o‘rtasidagi uyg‘unlik zamonaviy moda industriyasining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Milliy dizayn elementlarini global tendensiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali moda nafaqat tijoriy mahsulot, balki madaniyatlar aro muloqot vositasiga ham aylangan deb bemalol ayta olamiz.

O‘zbekistonda ham fast fashion elementlari asta-sekin rivojlanmoqda. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tezkor trendlarni kuzatib, ommabop kiyimlar ishlab chiqarmoqda. Shu bilan birga, milliy matolar, ekologik ishlab chiqarish va hunarmandchilikka asoslangan barqaror moda yo‘nalishlari ham ahamiyat kasb etmoqda.

Kelajakda O‘zbekiston moda sanoatida:

1. ekologik dizayn;
2. qayta ishlangan materiallar;
3. milliy hunarmandchilik;
4. barqaror ishlab chiqarish yo‘nalishlari yanada rivojlanishi kutilmoqda.

Fast fashion zamonaviy moda sanoatining eng muhim hodisalaridan biri bo‘lib, moda mahsulotlarini tez va arzon tarzda ommalashtirish imkonini yaratdi. Biroq uning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy salbiy oqibatlari global muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli bugungi kunda barqaror moda, ekologik ishlab chiqarish va ongli iste’mol tamoyillari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kelajak modasi nafaqat chiroyli, balki ekologik va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli bo‘lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, fast fashion zamonaviy moda sanoatining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U insonlarga arzon va trenddagi

ISSN 3030-3907

kiyimlarni tezkor ravishda taqdim etishi bilan moda olamida katta o‘zgarish yasadi. Ayniqsa, yoshlar orasida fast fashion ommabop bo‘lib, moda tendensiyalarining keng tarqalishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu tizim iqtisodiy jihatdan savdo hajmining oshishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga ham yordam bermoqda.

Biroq fast fashionning salbiy tomonlari ham juda ko‘p. Kiyimlarning ortiqcha ishlab chiqarilishi ekologik muammolarni kuchaytirib, suv resurslarining kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi va katta miqdordagi chiqindilar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, ayrim mamlakatlardagi arzon ishchi kuchidan foydalanish, og‘ir mehnat sharoitlari va past ish haqi kabi ijtimoiy muammolar ham fast fashion bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu esa moda sanoatida axloqiy va ekologik mas’uliyat masalasini dolzarb mavzuga aylantirmoqda.

Shu sababli bugungi kunda barqaror moda, ekologik toza mahsulotlar va ongli iste’mol tushunchalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insonlar kiyim tanlashda nafaqat tashqi ko‘rinish va narxga, balki mahsulotning sifati, ishlab chiqarilish jarayoni va ekologik ta’siriga ham e’tibor qaratishi zarur. Kelajakda moda sanoatining rivojlanishi fast fashion va slow fashion o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda inson manfaatlarini himoya qilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. O‘zbek milliy liboslari va an’anaviy bezak san’ati. — Toshkent, 2018.
2. Rahimova, D. O‘zbek xalq amaliy san’ati va milliy liboslar. — Toshkent, 2016.
3. Jo‘rayev, S. Milliy dizayn va zamonaviy moda uyg‘unligi. — Toshkent, 2020.
4. Fashion Revolution. Fast Fashion and Its Impact on Society and Environment.
5. Xo‘jayev, A. *O‘zbek milliy liboslari tarixi.* Toshkent: Fan, 2010.
6. Abdullayeva, M. *Milliy libos va zamonaviy dizayn uyg‘unligi.* Toshkent, 2018.
7. Karimova, D. *Zamonaviy o‘zbek modasida milliylik masalalari.* “San’at va madaniyat” jurnali, 2020.

ISSN 3030-3907